

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA OTA OBRAZI TAHLILI

Rahmonova Ismigul Alisher qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotining mustaqillikdan keyingi taraqqiyot bosqichlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va ma’naviy izlanishlari markazga aylangan badiiy asarlar ko‘p yaratildi. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani ana shunday ruhiy-psixologik asarlardan bo‘lib, unda insonning o‘zligini anglash jarayoni, ota-ona va farzand munosabatlarining ma’naviy-madaniy mohiyati chuqur yoritilgan. Asarda Ota obrazi — nafaqat syujetni harakatga keltiruvchi qahramon, balki butun asarning falsafiy asosini belgilovchi markaziy timsol sifatida gavdalanadi. Ota timsoli orqali yozuvchi milliy mentalitet, oila tushunchasi, ma’naviyat, halollik va sabr kabi qadriyatlarni badiiy umumlashtiradi.

Tayanch so‘zlar: milliy qadriyat, syujet, ota, farzandkushlik, oila qadriyati, ota arxepti, ramziy va falsafiy obrazlar, psixologik realizm.

Abstract: In the post-independence stages of development of Uzbek literature, many works of art were created in which the human psyche, inner experiences and spiritual searches became the center. Ulugbek Hamdam's novel "Father" is one of such spiritual and psychological works, which deeply illuminates the process of human self-awareness, the spiritual and cultural essence of parent-child relationships. In the work, the image of the Father is embodied not only as a hero who sets the plot in motion, but also as a central symbol that determines the philosophical basis of the entire work. Through the image of the Father, the writer artistically summarizes such values as the national mentality, the concept of family, spirituality, honesty and patience.

Keywords: national value, plot, father, infanticide, value of the family, father archetype, symbolic and philosophical images, psychological realism.

Adabiyotlarda turli xil obrazlar ishtirok etgan asarlarni ko‘plab uchratamiz. Misol uchun, “ONA” haqidagi qasidalar, hikoyalar hatto romanlar ham yod bo‘lib ketgan. Doimo onalar haqida kuylaymiz. Lekin shunday asarlar ham borki, otaning qanchalik ulug‘ligini bizga ko‘rsatib beradi. Ular otaga tik boqish oqpadar bo‘lishlikka olib kelishi, ota qarg‘ishini olish ikki dunyoda ham ko‘karmaslikka sabab bo‘lishini ta’kidlaydi.

“Ota” romanida Ota obrazining eng asosiy xususiyati — halollik, poklik va vijdoniy mustahkamlikdir. Yozuvchi Ota xarakteri orqali insonning haqiqiy baxti moddiy emas, balki vijdon pokligida ekanini ko‘rsatadi. Ota uchun hayotning bosh ma’nosi — rost so‘z, halol mehnat, toza nom va insoniylikning qadriyatlari. Asarda bu holat o‘g‘ilning ichki monologlari va Ota bilan bo‘lgan suhbatlar orqali ochiladi.

Haqiqiy ota g‘ururi ushbu asar orqali ifodalanadi. Ota obrazi haqida nafaqat oilaning boshlig‘i balki bir butun jamiyatning tayanch nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ushbu roman psixologik-falsafiy ruhda yozilgan. Asar o‘zbek xalqining qadriyatlarini, milliyligini zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Roman voqealari tasviri falsafiy va psixologik tahlillar bilan boyitilgan. Asosiy obrazlar: ota, farzand va jamiyat. Ota markaziy qahramon hisoblanadi. Ulug‘bek Hamdamning badiiy mahorati shundaki, Ota bilan farzand o‘rtasidagi ruhiy masofani, avlodlar orasidagi yashirin ziddiyatlarni keskin dramatizatsiyasiz, tabiiy holatda yoritadi. Ota obrazi — hayotning qiyinchiliklaridan toblangan, ichki bardamligi kuchli, sabr-matonatli inson sifatida gavdalanadi. Otaning har bir so‘zi, hatto sukuti ham ma’lum bir falsafiy yukga ega. U bolaga hayotning qoidalarini amaliy misollar, sodda, ammo teran fikrlar bilan tushuntiradi. Bu jihatlar Ota obrazini o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi oqila keksalar, dono otalar, mas’uliyatli oila boshliqlari bilan uyg‘unlashtiradi. Muallifning ota obrazini yaratishda foydalangan badiiy vositalari, tasvir, portret, dialog, monolog kabi badiiy unsurlardan mahorat bilan foydalangan. Ota obrazida hayotiy tajribaning ahamiyati, bilimlarning avlodlararo uzatilishi g‘oyasi yotadi. Uning har bir maslahatida yillar sinovidan o‘tgan haqiqatlar mavjud.

Bu asar orqali o‘zbek adabiyotiga farzandkushlik obrazi kirib keldi. Adabiyotshunoslikda yangi qirra kashf etildi. Otaning milliy g‘ururi o‘z farzandiga

bo'lgan mehridan ustun keladi. Balki, farzand aybsizdek ko'rinar, lekin farzand va ota o'rtasidagi o'zaro ziddiyatga jamiyat sababchi edi. Jamiyat, ya'ni atrofdagi insonlarning bilib-bilmay otani qiziga qayrashi bir qizning bevaqt o'limiga hamda padarning farzandkush bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu roman bir tomondan Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" nomli romanini esga soladi. Bu romanda ham ota obrazi haqiqiy g'urur egasi sifatida tasvirlanadi. O'z o'g'lining nomuvofiq ishlarini ko'tara olmaydi. Oxir oqibat o'g'lining o'limiga sabab bo'ladi. Lekin Ulug'bek Hamdamning bosh qahramoni esa o'z qo'li bilan dilbandini o'ldiradi. Bu voqea orqali muallif chinakam o'zbek otasining obrazini ko'rsatib berolgan.

Ulug'bek Hamdam otaga Po'lat deb ism tanlashi ham bejiz emas. Ota shunday irodali bo'lishi kerakligi, uzoq vaqt farzaand ko'rish ilinjidagi sabr-toqati tufayli ham shunday ism tanlangan. Asardagi tasvirlangan ota uchun esa po'latdek yurak kerak edi.

Romandagi bir obraz borki, uni o'qigan har bir kitobxon unga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Uning ismi Erboydir. U sababli Po'lat o'z farzandi qotiliga aylanadi. Bu ismning tanlanishiga sabab er yigit bo'lishligi, xalq xizmatini qilishi edi. Ammo u yoshlikdagi ginasi tufayli o'z do'stiga "yordam berdi".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, romanda yozuvchining badiiy mahoratiga, balki ism tanlashdagi yuksak badiiyatiga qoyil qolmasdan iloj yo'q. Undagi har bir voqea, qahramonlarning ruhiyati, ularning ma'naviy dunyosi asarning milliy, turkona, mental tafakkur namunasi ekanidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ulug'bek Hamdam "Ota" romani- Toshkent. Yangi asr avlodi-2022
2. Qo'shjonov A. Hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyoti. -Toshkent: Fan, 2025
3. Sobirova N. "Zamonaviy romanchilikda ota obrazi talqini" // O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi, 2020-yil 12-mart.
4. Qodirov X. "Ulug'bek Hamdam romanlarining baadiiy talqini". // Filologiya masalalari, 2021.